

5-dars. Takrorlash. Masalalar yechish



1. Sonlarni **eng kichigidan** boshlab shunday aytingki:
- a) har bir keyingi son oldingisidan **ikki marta** katta bo'lsin;
 - b) har bir keyingi son oldingisidan **uch marta** katta bo'lsin.
- Qaysi sonlarni aytmadingiz?

2 6 8 12 9 4 32 16 18



2. Jadvalda O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan jonzotlar guruhlarini ko'rsatilgan. Unda jami nechta jonzot turi keltirilgan?



77 tur



18 tur



16 tur



48 tur



25 tur



3. Botanika bog'ida 46 ta sariq lola va 25 ta oq lola piyozchasi, lola piyozchasidan 17 ta kam za'faron piyozchasi yetishtirildi. Botanika bog'ida jami nechta lola va za'faron piyozchasi yetishtirilgan?



za'faron



4. Dastlab tenglamalarning **o'ng qismini** hisoblang, keyin ularni yeching.

$$6 \cdot x = 237 - 61 \cdot 3$$

$$42 : y = 87 - 9 \cdot 9$$



5. Berilgan sonlardan foydalanib, har birining natijasi **40 soniga** teng bo'lgan imkon qadar ko'proq tengliklar tuzing.

1 2 3 4 5 6 7 8 9 10 12 18 35



6. Istirohat bog'ida 60 ta terak 6 ta bir xil qatorga, 40 ta chinor esa 5 ta bir xil qatorga ekildi. Qaysi qatorga ko'p va qancha ko'p daraxt ekildi?



7. **Doiraviy** misollarni yeching. Misollarni ustun shaklida shunday yozingki, har bir keyingi misol oldingi misolning javobiga teng son bilan boshlansin.

$23 + 47$

$7 \cdot 9$

$7 + 16$


$70 : 10$

$56 : 8$

$63 - 7$



8. Gultuvaklarni javonlarga shunday joylashtiringki, ustun va qator bo'ylab aniq **15 tadan gul** tursin. Tuvak ostidagi son undagi gullar sonini bildiradi.



9. Ifodalarning qiymatini hisoblang. Javoblarga mos harflarni berilgan tartibda joylashtirib, O'zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan o'simlik nomini aniqlang.

L $7 \cdot 6 + 49$

N $8 \cdot (35 - 28)$

I $(143 - 116) : 3$

G $32 + 63 : 7$

CH $(35 - 29) \cdot 4$

U $54 : 9 \cdot 8$

I $80 : 10 \cdot 5$

N $103 - 6 \cdot 6$

24

9

67

56

40

41

48

91



10. Ekspeditsiya davomida birinchi olim 54 ta, ikkinchi olim esa birinchi olimga nisbatan 17 ta ko'p noyob o'simlik topdi. Agar olimlar jami 180 ta o'simlik topgan bo'lsa, uchinchi olim nechta o'simlik topgan?

